

O'zbekistonda ilk bor "Agar-art" konteksti bo'lib o'tdi

Mikrobiologiya institutida 2022-yil yakunida "Agar-art" kontekstiga start berildi. Ushbu tanlovda O'zbekiston ilmiy muassasalarining yosh olimlari ishtirok etishdi. Tanlovda 20dan ziyod ishlar taqdim etildi. G'oliblarni 2ta nominatsiyada: mutaxassislar tanlovi va internetdagi ovoz reytingi bo'yicha saralash amalga oshirildi. Ushbu tanlov O'zbekistonda ilk bor tashkil etilishiga qaramay ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Buni ular yaratgan san'at asarlaridan bilish mumkin. Tanlov g'oliblari diplom va pul yutuqlari bilan mukofotlandilar.



Mikrobiologiya instituti tayanch doktoranti Sayliye Mirshod "Ona bag'ridagi bola" sanat asari bilan internet orqali eng ko'p ovoz to'plagan asar nominatsiyasida g'olib bo'ldi va 1000000 so'mdagi pul yutug'i hamda diplom bilan taqdirlandi.






Mikrobiologiya instituti tayanch doktoranti Sa'dullayev Shohrux "O'zbekiston nematlari" sanat asari bilan mutaxassislar tanlovi nominatsiyasida 1-o'rin sohibi bo'ldi va 1000000 so'mdagi pul yutug'i hamda diplom bilan taqdirlandi.



Mikrobiologiya instituti kichik ilmiy xodimi Mamatraimova Shahnoza "Naqshinkor tovu" sanat asari bilan mutaxassislar tanlovi nominatsiyasida 2-o'ringa loyiq topilib 700000 so'mdagi pul yutug'i va diplom bilan taqdirlandi.



Ilg'or texnologiyalar markazi biotexnologiya laboratoriyasi laboranti G'ulomov Jaxongir "Ummon" sanat asari bilan mutaxassislar tanlovi nominatsiyasida 3-o'rin sohibi bo'ldi va 400000 so'mdagi pul yutug'i hamda diplom bilan taqdirlandi.

Barcha san'at asarlari o'zining originalligi va o'ziga xosligi bilan mutaxassislar e'tiborini tortdi. Mikroorganizmlar ishtirokida chizilgan ushbu san'at asarlarini baholash ularda qiyinchiliklar uyg'otgani sababli mutaxassislar tanlovi bo'yicha qo'shimcha yana bir ishtirokchiga rag'batlantiruvchi o'rin sifatida 300000 so'mdagi mukofot puli va diplom taqdim etildi.



Mikrobiologiya instituti tayanch doktoranti Xidirova Mastura “Akvakultura” sanat asari bilan mutaxassislar tanlovi nominatsiyasida rag‘batlantiruvchi o‘rin sohibasi